

16-YUZYILLIK TURKISTON TARIXINI O‘RGANISHDA USMONLI ARXIV HUJJATLARINING O‘RNI

Abdullajon Usmonov Soxibjon o‘g‘li,

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti

ORCID. <https://orcid.org/0009-0004-9129-483X>

Email. abdullajonusmonov0@gmail.com

Annotatsiya. *Tarix fanida manbashunoslikning asosiy tayanchi bo‘lgan arxiv hujjatlarining ahamiyati beqiyosdir. Zero, ular orqali davlatlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga oid eng ishonchli ma’lumotlarni olish mumkin. Ayniqsa, chet el arxivlarida saqlanayotgan Turkiston tarixiga oid hujjatlarni ilmiy muomalaga kiritish bugungi o‘zbek tarixshunosligi oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.*

Bugungi kunda Turkiston tarixiga aloqador bo‘lgan boy hujjatlar Rossiya, Turkiya, Germaniya, Britaniya kabi yirik davlatlar arxivlarida saqlanmoqda. Ular ichida Turkiyadagi Usmonli arxivi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u Turkiya Davlat arxivlari boshqarmasi huzuridagi eng yirik manba markazlaridan biridir. Unda Usmonli imperiyasining ilk davrlaridan to uning qulashigacha bo‘lgan siyosiy-diplomatik bitimlar, shartnomalar, davlat daftarlarining turli ko‘rinishlari va boshqa turli hujjatlar jamlangan. Ushbu arxiv materiallari nafaqat Usmonli imperiyasining o‘z tarixini yoritish, balki uning Sharq mamlakatlari, jumladan, Turkiston hududlari bilan bo‘lgan siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, diniy va madaniy aloqalarini o‘rganishda ham muhim manba vazifasini o‘taydi. Usmonli hujjatlarining tadqiq etilishi Turkiston tarixining yangi qirralarini ochishga, balki o‘zbek xalqining Onado‘li va Yaqin Sharq bilan aloqalarini yanada kengroq yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Usmonli arxiv hujjatlari, Muhimma daftarlari, Xatti humoyun, devoniy, riqo, Usmoniylar, Shayboniylar, Safaviylar, Sulton Sulaymon, Abdullaxon.*

Abstract. *The importance of archival documents, which are the mainstay of source studies in history, is incomparable. After all, through them it is possible to obtain the most reliable information about the political, economic, social and cultural life of states. In particular, the introduction of documents related to the history of Turkestan, which are stored in foreign archives, into scientific circulation is one of the most urgent issues facing Uzbek historiography today.*

Today, rich documents related to the history of Turkestan are stored in the archives of such large countries as Russia, Turkey, Germany, and Britain. Among them, the Ottoman Archive in Turkey is of particular importance, as it is one of the largest source centers under the Turkish State Archives. It contains political and diplomatic agreements, treaties, various versions of state registers and other various documents from the early days of the Ottoman Empire until its collapse. These archival materials serve as an important source not only for shedding light on the history of the Ottoman Empire itself, but also for studying its political, economic, legal, religious, and cultural ties with the countries of the East, including the regions of Turkestan. The study of Ottoman documents serves to reveal new aspects of the history of Turkestan, as well as to shed more light on the ties of the Uzbek people with Anatolia and the Middle East.

Keywords: *Ottoman archival documents, Mühimme Registers (Defters), Hatt-i Humayun (Imperial Rescripts), Divani, Riq‘a, Ottomans, Shaybanids, Safavids, Sultan Suleiman, Abdullah Khan.*

Özet. *Tarih araştırmalarında kaynak çalışmalarının temelini oluşturan arşiv belgelerinin önemi kıyaslanamaz. Sonuçta, devletlerin siyasi, ekonomik, sosyal ve kültürel yaşamı hakkında en güvenilir bilgilere bu belgeler aracılığıyla ulaşmak mümkündür. Özellikle, yabancı arşivlerde saklanan Türkistan tarihine ilişkin belgelerin bilimsel dolaşıma sokulması, Özbek tarih yazımının bugün karşı karşıya olduğu en acil konulardan biridir.*

“XXI ASRDA TARIXIY ONG, FALSAFIY TAFAKKUR, PEDAGOGIK VA LINGVOMADANIY YONDASHUVLAR” XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Bugün, Türkistan tarihine ilişkin zengin belgeler Rusya, Türkiye, Almanya ve İngiltere gibi büyük ülkelerin arşivlerinde saklanmaktadır. Bunlar arasında, Türk Devlet Arşivleri bünyesindeki en büyük kaynak merkezlerinden biri olan Türkiye'deki Osmanlı Arşivi özel bir öneme sahiptir. Osmanlı İmparatorluğu'nun ilk dönemlerinden çöküşüne kadar uzanan siyasi ve diplomatik anlaşmalar, antlaşmalar, devlet kayıtlarının çeşitli versiyonları ve diğer çeşitli belgeleri içermektedir. Bu arşiv materyalleri, yalnızca Osmanlı İmparatorluğu'nun tarihine ışık tutmakla kalmayıp, Türkistan bölgeleri de dahil olmak üzere Doğu ülkeleriyle olan siyasi, ekonomik, hukuki, dini ve kültürel bağlarını incelemek için de önemli bir kaynak teşkil etmektedir. Osmanlı belgelerinin incelenmesi, Türkistan tarihinin yeni yönlerini ortaya çıkarmanın yanı sıra, Özbek halkının Anadolu ve Orta Doğu ile olan bağlarına da daha fazla ışık tutmaktadır.

Anahtar Kelimeler: Osmanlı arşiv belgeleri, Mühimme defterleri, Hatti Humayun, divani, rika, Osmanlılar, Şeybaniler, Safeviler, Sultan Süleyman, Abdullah Han.

Kirish. Boshbaqonlik usmonli arxivida 150 milliondan ortiq hujjatlar mavjud bo'lib[1, XXVII s.], ularning 30 mingdan ortig'i bevosita Turkiston tarixiga tegishli.

O'zbek tarixshunosligida Usmonli arxivlarida saqlanayotgan Turkiston tarixiga oid hujjatlar deyarli tadqiq etilmagan. Tarix instituti O'rta asrlar bo'limi boshlig'i, tarix fanlari doktori Sherzodxon Mahmudov Qo'qon xonligi va Usmoniylar o'rtasidagi aloqalari bo'yicha olib borgan tadqiqotlari davomida Usmonli arxivining Hatti Humoyun(HAT), Bosh vazir devoni(A.DVN.NMH), Xorijiya nazoratining siyosiy qismi(HR.SYS) kabi jamg'armalarida saqlanayotgan hujjatlaridan foydalangan.

Hujjatlarning eng birinchi o'ziga xosligi bu hozirda so'zlashuvda bo'lmagan turk, fors va arab tili qorishuvidagi "usmonli" tilida yozilganidir. Ikkinchi xususiyati ularni turli yozuv turlarida yozilgani hisoblanadi. Masalan tavqi, riqo, muhaqqaq, rayhoniyy, suls, nas'h, ta'liq, devoniyy, siyoqat, riq'o kabi yozuv turlari mavjud bo'lib, ular orasida suls, nas'h, ta'liq, devoniyy, riq'o va siyoqat eng ko'p qo'llanilgan yozuv turidir. Bu xilma-xillik hujjatlarni o'qish, talqin qilish va ilmiy muomalaga kiritishda tarixchi manbashunosdan til va yozuv malakasini puxta o'zlashtirishni talab qiladi.

Shu sababli, o'zbek tarixshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri – Usmonli arxivlaridagi ushbu hujjatlarni chuqur o'rganish va ilmiy muomalaga kiritishdir. Bu jarayon nafaqat Turkiston tarixining yangi qirralarini ochishga, balki o'zbek va turk xalqlarining tarixiy aloqalarini yanada kengroq yoritishga xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar. 16-yuzyillik hujjatlari. Tadqiqot jarayonida 16-yuzyillik Turkistonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tarixiga oid 100 ga yaqin hujjat aniqlandi. Ushbu hujjatlarda Turkiston xonlari bilan Usmonli sultonlari o'rtasidagi elchilik yozishmalari, tashqi dushmanlarga qarshi birgalikda harbiy-siyosiy ittifoq tuzish masalalari, Turkistondan yuborilgan elchilarni kutib olish, ularni joylashtirish va ta'minlash tartiblari o'z ifodasini topgan. Shuningdek, turkistonlik hojilarning Usmoniylar hududi orqali amalga oshirgan haj safari va bu jarayonda Usmonli hukumatining hojilarga ko'rsatgan moddiy hamda tashkiliy yordamlari haqidagi ma'lumotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, hujjatlarda Turkistondan

Usmoniylar mamlakatiga yo‘l olgan shayxlarning diniy-ma’rifiy faoliyati hamda turkistonlik tijoratchilarning savdo-sotiq ishlari bilan bog‘liq qimmatli tarixiy ma’lumotlar ham uchraydi.

Shayboniylar va usmoniylar o‘rtasidagi siyosiy aloqalar Abdullaxon davrida yanada faollashgan. Xususan, Abdullaxon davrida ikki mamlakat o‘rtasidagi diplomatik aloqalarga doir 20 ga yaqin hujjatlar mavjud. Bu hujjatlarning asosiy qismini Turondan kelgan elchilarni kutib olish, ularning ta’minoti va xavfsizligi borasidagi masalalar tashkil etadi. Bundan tashqari janubda safaviylarga qarshi[10], shimolda esa Astraxanni ozod qilish uchun ruslarga qarshi[17; 18] birgalikda kurashish uchun harbiy ittifoq tuzish masalalari to‘g‘risida ham hujjatlar mavjud.

Usmoniylar davlat arxivida saqlanayotgan 21-raqamli Muhimma daftarining 465-hujjati Sulton Salim II tomonidan Abdullaxonga yo‘llangan maktubdir. 1573-yil aprel oyida yozilgan ushbu xatida elchi Amir Abdulloh orqali Abdullaxon tomonidan yuborilgan maktub yetib kelgani va haj yo‘lining xavfsizligini ta’minlash yo‘lida ko‘rilayotgan chora-tadbirlar haqida sulton ma’lumot bergan. Shuningdek, u O‘rta dengizda hojilar va musulmon savdogarlar karvonlariga hujum qilayotgan venetsiyalik qaroqchilarga qarshi yurish olib borib, Kipr orolini egallagani, musulmonlarni himoya qilish hamda ikki davlat o‘rtasidagi do‘stona aloqalarni yanada mustahkamlash istagini bildirgan[7].

Abdullaxon siyosiy hokimiyatini mustahkamlab olgach, janubdagi safaviylar tasarrufiga o‘tgan hududlarni, xususan Xurosonni qaytarib olish yo‘lida harbiy harakatlarni boshladi. Bu maqsadda u Safaviylarga qarshi Usmoniylar imperiyasi bilan strategik harbiy ittifoq tuzishga intildi.

O‘z navbatida, Usmoniylar davlati ham imperiyaning sharqiy chegaralarini mustahkamlash va mintaqadagi ta’sir doirasini kengaytirish maqsadida Shayboniylar bilan siyosiy hamda harbiy hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdi.

Usmoniylar arxivida saqlanayotgan 32-raqamli Muhimma daftarining hijriy 986-yil, 22-jumodil avval sanasidagi (1578-yil 27-iyul) 403-hujjatida Abdullaxon va Usmoniylar sultoni o‘rtasida dastlabki harbiy ittifoq tuzish urinishlariga oid muhim ma’lumotlar keltirilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, 985-yil rabi‘ ul-avval oyida (milodiy 1577-yil may–iyun) Abdullaxon Qizilboshlar tasarrufidagi Xuroson hududlariga Toshkent sultonlari bilan birgalikda harbiy yurish uyushtirib, Qizilboshlar bilan kurashda yordam so‘rash maqsadida Abdulloh ismli elchini Edirnaga jo‘natgan. Bu orada Safaviylar hukmdori Shoh Taxmasp ham Shoh Quli ismli elchi orqali Usmoniylar bilan o‘zaro munosabatlarni yaxshilash va sulh tuzish taklifini ilgari surgan. Natijada, Eron tomonining sulh tashabbusi sababli o‘zbek elchisining iltimosi vaqtincha ko‘rib chiqilmay qolgan.

Biroq safaviylar va usmoniylar o‘rtasidagi tinchlik muzokaralari muvaffaqiyatsiz yakunlangach, usmonli vaziri Mustafo Poshoga quyidagi mazmunda farmon berilgan.

Buyurdimki, (farmonim) yetib borganda dushman tomonlarini kuzatib tekshirib, keyin zarur bo‘lganiga ko‘ra yaxshi tadaruk bilan bor kuchni ishga solib, fursat kelganda va zarur bo‘lgan joyda dushmanni mag‘lub etish va mamlakat hamda viloyatlarini fath va zabt qilish bobida turli go‘zal sa‘y-harakatlar va ulug‘ asarlar yuzaga keltirib, ravshan din va abadiy davlatim yo‘lidagi ishlarda kuch-quvvatingni sarflaysan. Va yuqori tomondan xabardor bo‘lgan yomon xabarlar hamda boshqa xabar qilish zarur bo‘lgan ahvollarni bildirishni unutmaysan[10].

Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” asari hamda Muhmmadyor ibn Arab Qatag‘on qalamiga mansub “Musaxxir al-bilod”da ushbu voqealar hijriy 974–975-yillar (milodiy 1566–1567)ga oid deb ko‘rsatiladi. Ushbu manbalarda keltirilishicha, 1566-yil oxirida Abdullaxon o‘z ukalari Ibodulla Sulton va Xusrav Sulton, shuningdek Toshkent hokimi Darvishxonning o‘g‘li Tohir Sulton hamda Samarqand sultonlaridan Abdulatif Sulton bilan siyosiyharbiy ittifoq tuzib, Xuroson hududiga yurish boshlagan[19, 263 b.; 20, 10-11 b.].

Usmoniylar arxivida saqlanayotgan 32-raqamli Muhimma daftarining yana bir 664-raqamli hujjatida ham Usmoniy sultoni va Abdullaxon o‘rtasida Qizilboshlarga qarshi harbiy ittifoq masalasi yoritilgan. 664-nomerli hujjatda ya‘ni Usmonli sultonining Qrim xoniga yozgan maktubida qizilboshlarga qarshi yurishlar manfaatli ekanli va Buxoro xoni Abdullaxonga ishonchli odamlar orqali maktub yuborib, u tarafdin Abdullaxonning qizilboshlilarga qarshi yurishga da‘avt etganini ma‘lum qiladi[11].

1579-yilda Usmoniy sultoni tomonidan Qrim xoniga yuborilgan maktubda, ilgari so‘ralgan o‘q-dori va harbiy anjomlar to‘liq yetkazilgani, Qrim elchisi Rajab orqali yetib kelgan maktubda qayd etilgan boshqa zarur jihozlar ham tayyorlab qo‘yilgani va ularni aynan Rajab vositasida yuborish mo‘ljallanayotgani bildiriladi. Maktubda, Qrim xonining ushbu yuboriladigan anjomlarni kutib o‘tirmasdan, darhol Demirqopuga (Temir eshik) yo‘l olishi, u yerda Usmon Posho, sarkarda Mustafo Posho hamda boshqa yuqori martabali amirlar bilan uchrashib, Buxoro va Qumuq hukmdorlariga ham xabar yetkazib, barcha kuchlarni birlashtirgan holda dushman ustiga qo‘shma yurish uyushtirish lozimligi alohida ko‘rsatib o‘tiladi[12].

Usmoniy sultonining 1582-yilda mamlakatning sharqiy chegaralaridagi amirlaridan biri — Boshi ochiq Malikga yozgan Nomayi Humoyunida ham Buxoro xoni Abdullaxon bilan harbiy ittifoq masalalari tilga olinadi. Xususan, hujjatda har tomondan Eron ustiga qo‘shin yo‘naltirilayotgani va Buxoro xoni Abdullaxon ham Eron ustiga yurish qilishini bildirgani qayd etiladi. Shuningdek, Kafa tomonidan anchagina

Rumeli askari va tatar askari Shirvonga yuborilgani, Gurjistonga yordam berish uchun Arzirum va Childir beklarbeklariga buyruq berilgani sababli, agar Simon¹ bilan urush chiqsa yoki Eron tomonidan hujum bo‘lsa, qarshi javob berishlari, ammo o‘zlari urushga bevosita sabab bo‘lmasliklari, shu bilan birga oziq-ovqat va qurol-aslaha zaxiralarini tayyorlab qo‘yishlari buyuriladi[13].

Usmonli arxivida saqlanayotgan Turkistondan kelgan elchilarni kutib olish, ularning ta‘minoti va xavfsizligi borasidagi hujjatlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjatlar orqali elchilarning kelib-ketish yo‘nalishlari, guzargohlari, elchilarga ko‘rsatilgan xizmatlar, ularning xavfsizligini ta‘minlash yo‘lida amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida qimmatli ma‘lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Xususan, 21-muhimma daftarining 1573-yil 5-may sanasiga oid, elchilarning xavfsizligini ta‘minlash masalasiga bag‘ishlangan 716-sanoqli hujjatda quyidagilar bayon etilgan.

“Ushbu elchiga berildi. Fi 3 Muharram 981-yil.

Kafa begiga hukmki.

Hozirda Buxoro tomonidan saodatli ostonamga kelgan elchining masalalari nihoyasiga yetib, yana u tomonga safar qilish uchun ruxsat so‘ragani bois, oliy ruxsatim berildi. Buyurdimki.

Sen elchi yetib borgach, Azoq atrofidagi amirlardan Yaxshi Soat mirzo, Islom mirzo va Qozi mirzolarga xabar yuborib, ogohlantirasan. Shunda yuqorida zikr etilgan elchi va uning odamlari Odil daryosidan bemalol o‘tishi uchun zarur yordam ko‘rsatilsin. Ularning o‘zlari, odamlari, mol-mulki va hayvonlariga hech kim taarruz (bosqin) qilmasin, xavfsiz va sog‘-omon yetib borishlari ta‘minlansin. Shuningdek, zarur bo‘lsa, yo‘l xarajatlari uchun yetarli mablag‘ bilan ta‘minlansin[8].”

Usmonli arxivida saqlanayotgan hujjatlardan yana birida Buxoro xoni Abdullohxon tomonidan Istanbulga yuborilgan elchining xavfsiz va sog‘-omon holda qaytishini ta‘minlash masalalariga bag‘ishlangan. Ushbu hujjatda qayd etilishicha, Buxoro elchisini Demirqopu (Temir darvoza) orqali vataniga qaytarish uchun Shirvon muhofazasida xizmat qilayotgan Usmon poshshoning odamlari — Shatir Mehmed, Husrav va Ali Chavush biriktirilgan. Ular elchini kuzatish va uning ehtiyojlarini ta‘minlash bilan vazifalangan. Buyruqda, odatga ko‘ra zarur jihoz va anjomlarni yetkazish, elchining esa xavfsiz tarzda manziliga olib borilishi qat‘iy ko‘rsatib o‘tilgan[14].

Ushbu hujjatlar Buxoro–Usmoniylar diplomatik aloqalarida elchilar xavfsizligini ta‘minlashning qanchalik muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Shuningdek, unda davlat tomonidan nafaqat diplomatik jarayonlarga, balki elchilarni kuzatib qo‘yish, ularning

moddiy ta’minoti va xavfsizligiga ham alohida e’tibor qaratilganini kuzatish mumkin. Bu esa ikki davlat o’rtasidagi munosabatlarning barqarorligini ta’minlashda diplomatik protokol qanchalik muhim bo’lganidan dalolat beradi.

Usmonli arxivida saqlanayotgan 1598-yilga oid hujjatlardan biri Buxoro elchilarining Istanbulga kelishi va ularni joylashtirish masalalariga taalluqlidir. Ushbu hujjatda qayd etilishicha, Buxoro elchilari Dorussaodatga(Istanbul) yetib kelganida ularning istiqomat qilishi uchun Solih poshsho saroyini jihozlash zarur bo’lgan. Shu maqsadda davlat xazinasidan mablag’ ajratilib, Dorussaodat chavushlaridan Husayn Chavushdan 12 ming aqchaga to’rt dona gilam sotib olingan. Ushbu xarajatlar davlat g’aznasidan qoplangan. Shuningdek, zarurat paytida ehtiyoj sezilsa ularga rasmiy maktub yuborish masalasi ham ko’tarilib, bu borada Istanbul zaimi Hurram Chavush tomonidan ariza yozilgan[4].

Ushbu hujjat Buxoro–Usmonli diplomatik aloqalarining tashkiliy va moddiy tomonlarini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Undan ko’rinib turibdiki, elchilarning qabul qilinishi faqatgina siyosiy jarayon bilan cheklanmay, balki ularning yashash sharoiti va ta’minoti davlat tomonidan alohida nazorat qilingan. Bu esa 16-yuzyillik oxirida Buxoro xonligi bilan Usmoniylar o’rtasidagi munosabatlarga berilgan e’tibor darajasini yaqqol ko’rsatadi.

Ijtimoiy hayotga doir hujjatlarda Movarounnahrda kelgan shaxslarning Usmonli davlatidagi huquqiy maqomi, ularning jamiyatda tutgan o’rni yoritiladi. Masalan, Daftardor Mustafa Chalabiy tomonidan Halabda istiqomat qilgan Samarqandlik Shayx Muhammad Qazg’oniyning moliyaviy ta’minoti yetarli emasligi haqida yozilgan arizasidan so’ng unga qo’shimcha nafaqa tayinlangan[9]. Bu hujjat orqali Usmonli davlatida Turkiston ulamolari va diniy arboblari ijtimoiy homiylik ko’rsatilganini kuzatish mumkin.

Iqtisodiy masalalarga oid hujjatlarda asosan savdo yo’llari va moliyaviy munosabatlar yoritiladi. Masalan, Demirqopuga yaqin hududda yangi qal’a qurilishi haqida berilgan farmonda bu inshoot savdo yo’llari xavfsizligini ta’minlash va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash maqsadida qurilishi alohida ta’kidlangan[16]. Iqtisodiy masalalarga oid hujjatlardan yana birida 1573-yilda Toshkent hokimi Darveshxonning elchisi bo’lgan Sayyid Alining hamrohlari Basrada o’zlari bilan olib kelgan matolarni 7 ming loriyga sotganligi ammo basraliklar kelishilgan pulning 4 ming loriysini berganligi sababli sulton tomonidan Basra beklarbegisiga boshqa davlatdan kelgan tijoratchi va ziyoratchilarga bunday zarar va ziyon yetkazmaslik buyurilib, matolarni sotib olgan basraliklarni topib, Basra qozisining taftish hukmi bilan tijoratchilarga haqlarini olib berish haqida farmon yuboradi[2, 65 s.]. Sulton Salimning Abdullaxonga yozgan maktubida ham turkistonlik savdogarlarning Yaqin Sharq hududlarida xavfsiz

savdo-sotiq ishlarini olib borishlari uchun savdogarlarni talab, qaroqchilik qilayotgan venetsiyaliklarga zarba berib, Kiprni egallaganini ta’kidlab o’tadi[7].

Huquqiy hujjatlar orasida firibgarlik va soxta hujjatlar bilan bog‘liq voqealar ham qayd etilgan. Jumladan, 1560-yilda Uskup qozisiga yuborilgan farmonda, Buxoro elchilaridan biri nomiga soxta ruxsatnoma yozib bergan “Sariq Imom” ismli shaxs hibsga olinib, Istanbulga jo‘natilishi buyurilgan[3]. Shuningdek, 1590-yilga oid boshqa bir farmonda, Buxorodan kelgan hujjolarning Isoqchi iskalasiga kelganida, Bog‘don voyvodasi xizmatkorlari tomonidan Shayx Azizning ikki qizi, bir o‘g‘li hamda ularning mol-mulkari (ot, o‘kuz va boshqa buyumlari) zo‘rluk bilan tortib olingani haqida xabar qilinadi. Bu voqea yuzasidan chiqarilgan farmonga ko‘ra, aybdorlar topilib, hibsga olinib Istanbulga yuborilishi, jabrlanuvchilarning mol-mulki va ashyolari esa o‘z egalariga qaytarilishi qat’iy buyurilgan[15]. Ushbu hujjat Usmonli davlatining nafaqat siyosiy elchilar, balki haj safariga chiqqan musulmon ziyoratchilar huquqlarini ham himoya qilganini ko‘rsatadi.

Haj masalalari esa alohida o‘rin tutadi. Turkistonlik hojilar haj amalini bajarish uchun asosan Ajdarxon(Ashtarxon, Astraxan) orqali o‘tadigan yo‘lni tanlagan. Bunga asosiy sabab 16-yuzyillarda shayboniylar va safaviylar o‘rtasidagi dushmanona munosabatlardir. Garchand Xuroson va Eron orqali boradigan yo‘l qulay bo‘lsa-da shialar tomonidan sunniylarga o‘tkazilgan tazyiqlar hojilarning bu yo‘ldan foydalanishiga imkon bermagan. Xususan, 1567-yilda Samarqand, Buxoro va boshqa turkistonliklar haj amalini bajarib ortga qaytishda usmonli hukumatidan Qrim xonligi orqali Ajdarxonga, u yerdan esa o‘z mamlakatlariga qaytish uchun yordam so‘raydi. Usmonli sultoni turkistonlik hojilarning xavf-xatarsiz Ajdarxonga yetib olishlari hamda yo‘lda ularga kerakli yordam ko‘rsatish to‘g‘risida farmon beradi[5]. Shuningdek, Shayx Ahmad Yassaviy avlodidan bo‘lgan Shayx Zangiy va uning darvishlariga Makka va Madinaga borish jarayonida hech qanday to‘sqinlik qilinmasligi haqida maxsus farmon chiqarilgan[6].

Xulosa. Usmoniylar davlatining turkistonlik ziyoratchilarga homiylik ko‘rsatishidan ko‘zlangan asosiy maqsad, bir tomondan, Turkiston xonliklari bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, ikkinchi tomondan esa, sultonning “butun musulmonlarning xalifasi” maqomini amalda namoyon etishdan iborat edi.

Usmonli arxivida saqlanayotgan Turkiston tarixiga oid hujjatlar Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda muhim manba sifatida alohida o‘rin tutadi. Ushbu hujjatlar o‘zining mazmun va qamrovi jihatidan siyosiy-diplomatik aloqalar, harbiy hamkorlik, iqtisodiy munosabatlar, savdo-sotiq jarayonlari, huquqiy masalalar, shuningdek, haj safarlariga oid ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bu esa bizga Turkiston xonliklarining Usmonli davlati bilan turli sohalardagi aloqalarini yanada kengroq o‘rganish imkonini beradi.

Shuningdek, Usmonli arxiv materiallari ikki hudud o‘rtasidagi siyosiy strategiyalar va diplomatik yozishmalarning keng ko‘lamini o‘rganishga imkoniyat yaratadi. Bu hujjatlar orqali Turkiston xonliklarining o‘z zamonida xalqaro siyosiy maydonda tutgan o‘rni, tashqi siyosiy yo‘nalishlari va ularning Usmonli davlati bilan o‘zaro manfaatlari yanada ravshanlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Başbakanlik Osmanli Arşivi Rehberi. İstanbul. 2010, S. XXVII
2. Belgelerle Türkiye-Özbekistan ilişkileri. İstanbul 2022, s. 65
3. BOA, 1-muhimma daftari 471-hujjat
4. BOA, 7-DVN 9-hujjat
5. BOA, 7-muhimma daftari 667-hujjat
6. BOA, 7-muhimma daftari 748-hujjat
7. BOA, 21-muhimma daftari 465-hujjat
8. BOA, 21-muhimma daftari 716-hujjat
9. BOA, 25-muhimma daftari 2562-hujjat
10. BOA, 32-muhimma daftari 403-hujjat
11. BOA, 32-muhimma daftari 664-hujjat
12. BOA, 38-muhimma daftari 324-hujjat
13. BOA, 44-muhimma daftari 131-hujjat
14. BOA, 47-muhimma daftari 337-hujjat
15. BOA, 48-muhimma daftari 282-hujjat
16. BOA, 60-muhimma daftari 271-hujjat
17. BOA, 62-muhimma daftari 231-hujjat
18. BOA, 62-muhimma daftari 233-hujjat
19. Muhammadyor ibn Arab Qatag‘on. Musaxxir al-bilod. T., 2009. 263-bet
20. Хофиз Таниш Бухорий. Абдулланом. Т. 1969. 10-11-betlar